ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№10(4)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 430 sahifa,
20-oktyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ

MUNDARIJA

Pedagogical Model for Developing Students' Communicative Competence: Organisation of Experimental Work and Evaluation of its Effectiveness 10
Mukhamedova Matlyuba Satvaldiyevna, Xudoyberdiyev Olloqul Isaqovich

Bakalavriat darajasida bo'lajak matematiklarning kasbiy hamda amaliy malakalarini rivojlantirish usullari ... 17
Abduraxmonov Abdumo'min, Sheraliyev Aliboy Tulboyevich

Sport mashg'ulotlarini real vaqt rejimida boshqarishda ter biomarkerlarini o'lchovchi taqiladigan biosensorlar 20
Meliqo'ziyev Azizjon Adxamjon o'g'li

Ekstremal issiqlik sharoitida sportchilarning ish qobiliyatini oshirish shakllari: akklimatsiya, sovitish va individual gidratatsiya dalillari 26
Qodirova Shahlo Shavkatjon qizi

Mikroorganizmlarda fermentatsiya orqali energiya hosil bo'lishi va uning biotexnologik ahamiyati 31
Raxmatullaeva Maxfuza Igamberdiyevna

Bo'lajak pedagoglar tayyorgarligida learning analytics asosidagi metodik ta'minotning mazmuni va tuzilishi 37
Akbarova Sevaraxon Xusanboy qizi

Sovet davridan mustaqillik davrigacha O'zbekistonda suv siyosatining tarixiy transformatsiyasi: Orolbo'yi inqirozi misolida 45
Dadaboyev Nodirbek Ergashali o'g'li

Digital SAT matematika bo'limida maxsimal (800 ball) natijaga erishish strategiyalari va desmos interfaol imkoniyatlaridan foydalanish 51
Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich

Ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning, kreativ yondashuv asosida talabalarning nutq va tafakkurini rivojlantirishga oid nazariy bilim hamda amaliy malakalarga egaligi 55
Abdullayeva Mavluda Aribovna

Bo'lajak pedagoglarda pedagogik improvizatsion ko'nikma va malakalar 62
Ablokulov Sherali Davronovich

Interaktiv platformalar vositasida bo'lajak pedagoglarning texnologik-amaliy kompetensiyasini rivojlantirish: elektron ta'lim resurslarini yaratish tajribasi 66
Maxmudov Abduxalim Xamidovich, Yo'ldashev Axrorjon Egamnazar o'g'li

Elektr yoritish fanini o'qitishda yangi interfaol metodlarning ahamiyati 71
Nasretdinova Feruza Nabiyevna

Developing Methodological Decision-Making Skills in Pre-Service English Language Teachers Through Clil-Based Tasks 75
Nilufar Achilovna Tuxtayeva

Developing Linguocultural Competence Through Digital Storytelling in English Language Teaching: an Integrated Approach 79
Rakhimov Mansur

Nature of Speaking in EFL Contexts: Fluency, Accuracy, and International Competence 83
Rashidova Nodira Khabibullayevna, Egamberdiyeva Marjona Abdurasul kizi

Autizmli bolalarning sensor rivojlanishida ta'lim muhitining o'rni 89
Sh. A. Nurmatova

Ta'limda inson va sun'iy intellekt hamkorligining metodologik transformatsiyasi: inson markazli pedagogik paradigma 94
Tadjimatova Xosiyatxon Botirjon qizi

Ingliz tilini o'qitishda aralash metodlarni qo'llashning didaktik asoslari va darsni loyihalash modeli 102
Usmonova Dilnoza Muratovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Онлайн-проекты как механизм формирования профессиональных навыков у будущих учителей русского языка 106
Матниязова Азиза Бахтияровна

Malakali dzyudochilarni tayyorlashda texnik-taktik mahoratni takomillashtirish mexanizmlariga innovatsion yondashuv 110
Tangriyev Abdullo Tovashevich

Malakali dzyudochilarni xalqaro musobaqalarga tayyorlash tizimini takomillashtirish: Olimpiya saralash davrida rejalashtirish va cho'qqi shaklga chiqarish 116
Tangriyev Abdukarim Tovashevich

Sinfdan tashqari faoliyatlar jarayonida hadislarga asoslangan ma'naviy-axloqiy tarbiyaning pedagogik salohiyati va amaliy asoslarini takomillashtirish 122
Fayzullayeva Gulnoza Kamolovna

Ta'lim loyihalarining iqtisodiy-pedagogik samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari 129
Saitxonov Bobomurod Po'latovich

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan logopedik mashg'ulotlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi 133
Tojiboyeva Osiyoxon Alisher qizi

Aksiologik yondashuvning pedagogik va psixologik mohiyati 138
Hafizov Shahriyor Shavkatovich

Emotsional intellektni rivojlantirishda kognitiv yondashuvning nazariy-metodologik asoslari 142
Nishonova Lobar Mirzakulovna

Boshlang'ich sinflarda ongli o'qishni leksik-kognitiv yondashuv asosida rivojlantirish 146
Ne'matova Diyora Baxodir qizi, Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna

O'qituvchilarda kasbiy stressning yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi individual-psixologik omillar 153
Konratbayeva Ayjamal Bazarbayevna

Xorijiy tajribada neyropedagogik yondashuvlar va kognitiv boshqaruv modellari: kengaytirilgan tanqidiy komparativ tahlil 158
Izzatullayeva Zohidaxon Sunatdullayevna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik mahoratini rivojlantirish muammosi: pedagogik tahlil 164
Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Israilova Oydin Uchkun qizi

O'zbek musiqiy merosi va uni talabalarda qadriyatli munosabat sifatida shakllantirish 169
Mannapov Sultonali, Mansurova Nigoraxon Rustamjonovna

Integrativ ta'lim texnologiyalari va raqamli vositalar asosida bilish kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi 173
Quvvatova Mohira Hikmatillayevna

Maktabgacha ta'limda 6–7 yoshli bolalarning metakognitiv kompetensiyalarini o'yin faoliyati orqali rivojlantirishning texnologik dasturi va uni amaliyotga tatbiq etish tizimi 177
Nuritdinova Xurshida Narpulatovna

Futbol texnikasining asosiy elementlari va texnik harakatlarni bajarish usullarini o'rgatish 182
Sadriddin Tulepov

Innovatsion ta'lim muhiti asosida pedagogika fanini o'qitish modelining samaradorligini tajriba-sinov asosida baholash 187
Abdusattorova Sarvinoz Norqo'zi qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy idrok va fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirishning sinergetik-integrativ asoslari 192
Abdullayeva Feruza Nurillayevna

Rus tilini o'qitish jarayonida talabalarning o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi 197
Allayarova Dilfuza Klichevna

Practical Methodological Approaches to Developing Management Skills of Deputy Directors in Preschool Educational Organizations Principles of Connecting Theoretical Knowledge With Practical Activity 201
Makhamadalieva E'zoza Rustamkhuja

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Kimyo muhandisligi terminologiyasida polisemiya hodisasi 205
Shomurodova Zebiniso Rajabovna

Talabalar o'quv muvaffaqiyatini rivojlantirishning pedagogik, psixologik va texnologik determinantlari 209
Turaboyeva Madinaxon Raxmonjon qizi

O'quvchilarning madaniyatlararo kompetensiyasini mediamatnlar vositasida rivojlantirishga oid xorijiy tajriba tahlili 219
Turdimuratova Aysanem

Искусственный интеллект в преподавании русского языка в узбекоязычной аудитории: возможности, риски и методические решения 224
Мустанов Убайдулла Зулпанович

Shaxs texnologik tafakkuri fenomenining falsafiy-antropologik va gnoseologik talqini 229
Toshpulatova Farida Radjabovna

Lotin tilining zamonaviy tilshunoslikdagi o'rni 234
Shirinkulova Shafoat Malikovna, Rajabova Charos Shavkat qizi

Bo'lajak o'qituvchilar raqamli mediamadaniyatini kasbiy-pedagogik sifat sifatida rivojlantirishning konseptual asoslari 240
Narmanov Alisher Hasanovich

Maktabgacha ta'lim tashkiloti menejerlarining intellektual salohiyatini tashxislashning metodik ta'minotini takomillashtirish 244
Abdumo'minova Lobar Abdujabbarovna

Sun'iy intellekt orqali talabalar kasbiy sifatlarini rivojlantirishning boshlang'ich tushunchalari 249
Normurodov Sherzod Boymurodovich

"Smart o'qish" raqamli platformasi va muallif metodlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy komponentlarini rivojlantirish 253
Obidova Shohsanam G'anijon qizi

Lingvopoetikada shakl va mazmun birligi xususida nazariy qarashlar 257
Quvonchoy Yusupova

Designing an ESP Coursebook for Architecture Students on the Basis Of VTTSS 262
Sabirova Nilufar Kudratovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyatni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish 266
Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna

A Comparative Study of Idiom and Environmental Meaning in the Works of Ernest Hemingway and Tog'ay Murod 272
Zebiniso Allayarova, Malika Bahromova

Maktabgacha ta'limda o'yinga asoslangan ta'limni takomillashtirishning O'zbekiston Respublikasidagi me'yoriy-huquqiy asoslari 277
Farmonov Murodullo Sunnatilloyevich

Обучение русскому языку студентов направления узбекской филологии с использованием искусственного интеллекта: методическая модель 282
Набиева Камиля Азимовна

Bo'lajak tarbiyachilar mediakompitentligini raqamli texnologiyalar vositasida shakllantirish samaradorligini baholash mezonlari va diagnostik vositalari 290
Tavobova Ozoda Farhodovna

Все три брата Лобачевские действительно восприняли талант отца 296
Жумаев Эркин Эргашевич, Аманниязова Бибимариям Пирнияз кызы

Pedagogik tafakkur tarixida fikr tarbiyasi: yondashuvlar va zamonaviy ta'limda qo'llanish imkoniyatlari 302
Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limni raqamlashtirish muammolari 306
Raxmatullayeva Malika Bahodir qizi

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyalarining pedagogik imkoniyati 310
Imomkulova Ozoda Norboboyevna

Pedagogika mutaxassisligi magistrlarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning interdisiplinar mexanizmlari... 315
Jumaniyazova Go‘zal Baxorovna

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida parametr qatnashgan chiziqli tenglamalarni o‘rganish bo‘yicha ba’zi bir mulohazalar... 319
Musayeva Ziyoda Allayarovna

Bo‘lajak pedagoglarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muammoli ta’lim va keys-stadi metodlarini integratsiyalash... 325
Namozova Barno Navruzovna

Umumta’lim maktablarida formativ baholash orqali o‘quvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish: pisa yondashuvi asosida... 331
Norqulov Furqat Maxmatmo‘minovich

O‘quvchilarda agressiv xulq-atvorni boshqarish va ijtimoiy xulq-atvorni tarbiyalash usullari... 336
Nusratova Setora Dilshod qizi, Sh. U. Nurullayeva

Bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda STEAM texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari... 343
Raxmatullin Rafis Sagitovich, Zaitov Iskander Ravilevich, Ikromova Rano Ubaydullayevna, Qodirova Raxima Rajabovna, Muratbayeva Aliya Paraxatovna, Juman Turonovich

Shaxs psixik taraqqiyotida ruhiy holat modeli mental resurs tizimining zaruriy asosi sifatida... 348
Xudoyberganova Maqsuda Jumaniyazovna

Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining kreativ tafakkurini o‘yin texnologiyalari asosida rivojlantirish metodikasi (TRIZ va milliy xalq o‘yinlari misolida)... 353
Abdusattorova Umida Abdusamad qizi

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yinga asoslangan ta’limning imkoniyatlari... 359
Ergasheva Muslima Komiljon qizi

Skoliozi bor talabalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi: shaxslararo munosabatlar va emotsional holat xususiyatlari... 362
Nurullayev Abdurashid Ro‘zimboyevich

Imom Abu Homid G‘azzoliy ilmiy-ma’rifiy merosi asosida oliy ta’lim talabalarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning metodologik asoslarini takomillashtirish... 366
Ochilov Yakub Saydulloyevich

Socio-Psychological Factors in Staff Management in Early Childhood Education... 371
Tursunova Shaxnoza Elmurodovna

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion mexanizmlari... 376
Xudoynazarova Feruza Ilxomovna

O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi: yutuqlar, muammolar va istiqbollar... 380
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna

Дидактическая модель развития когнитивных учебных действий младших школьников на языковом, текстовом, интерпретационном и трансформационном уровнях усвоения понятия “имя существительное”... 384
Солохиддинова Фазилатхон Мухиддин кизи

Raqamli jamiyatda shaxs qadriyatlarining rivojlanishida metakognitiv jarayonlarning psixologik roli... 389
Raxmonova Zarifa Ne’matovna

“Maktab maslahatchisi”ning 6 vazifasi: ijtimoiy-pedagogik tahlil... 392
Jumanov Sherzod Saloyevich

4K modeli (kreativlik, kommunikativlik, kollaboratsiya, kritik fikrlash)ning paydo bo‘lishi va pedagogik asoslari... 397
Raximova Shoira Adilbekovna

Methods for Increasing the Effectiveness of Professional Activities of Higher Education Professors and Teachers Using Digital Technologies... 401
Qosimov Jahongir Avlaqulovich

Ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va metodik asoslari... 406
Sulaymanova Dildora Baxtiyorovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Oliy ta'limda talabalarda pedagogik jarayonlarni boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi ... 410
Mamatova Saodat Maxmudovna

Pedagogical Foundations of Developing Digital Culture in Future Teachers:
A Stage-By-Stage Model and Assessment Criteria ... 415
Urazova Surayyo Elmurod qizi

Atom yadrosi va elementar zarralar fizikasi fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etishda
axborot texnologiyalarining o'rni ... 419
A. I. Raxmanov

Bo'lajak o'qituvchilarni xulq-atvordagi og'ishlarni korreksiyalashga tayyorlashning
suggestiv-pedagogik mexanizmlari ... 425
Shermatova Manzura Ikromjanovna

IMOM ABU HOMID G'AZZOLIY ILMIY-MA'RIFIY MEROSI ASOSIDA OLIY TA'LIM TALABALARINI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHNING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Ochilov Yakub Saydulloyevich
Termiz davlat pedagogika instituti,
pedagogika kafedrasi v.b dotsenti, p. f. b. f. d. (PhD)
E-mail: yaqubochilov88@gmail.com

ORCID: 0009-0002-2947-4608

Annotatsiya: Maqolada Imom Abu Homid G'azzoliyning ilmiy-ma'rifiy merosini oliy ta'lim talabalarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash jarayoniga tatbiq etishning metodologik asoslari tahlil qilingan. Mutafakkirning "Ihyou ulum ad-din", "Mizon al-amal" va "Ayyuhal-valad" asarlaridagi ilm va amal birligi, nafs tarbiyasi, muhosaba, i'tidol hamda muallim odobi haqidagi g'oyalari zamonaviy pedagogik tamoyillarga transformatsiya qilingan. Tadqiqotda tarixiy-germenevtik, aksiologik, tizimli-strukturaviy va kompetensiyaviy yondashuvlar uyg'unlashtirilgan. Natijada maqsadli, mazmuniy, texnologik va baholovchi komponentlardan iborat takomillashtirilgan metodologik model, ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganlikning to'rt mezonli diagnostik tizimi hamda oliy ta'lim amaliyoti uchun ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: G'azzoliy, ilmiy-ma'rifiy meros, ma'naviy-axloqiy tarbiya, metodologik asos, nafs tarbiyasi, muhosaba, i'tidol, talaba, oliy ta'lim, pedagogik model.

Abstract: The article analyzes the methodological foundations for applying the scholarly and educational heritage of Imam Abu Hamid al-Ghazali to the spiritual and moral education of university students. Al-Ghazali's ideas on the unity of knowledge and action, discipline of the self, self-accounting (muhasaba), moderation (i'tidal) and the ethics of the teacher, as presented in "Ihya' 'ulum al-din", "Mizan al-'amal" and "Ayyuha'l-walad", are transformed into modern pedagogical principles. The study integrates historical-hermeneutic, axiological, systemic-structural and competency-based approaches. As a result, an improved methodological model comprising goal, content, technological and evaluative components is proposed, together with a four-criterion diagnostic system of students' spiritual and moral development and practical recommendations for higher education institutions.

Key words: al-Ghazali, scholarly heritage, spiritual and moral education, methodological foundation, self-discipline, self-accounting, moderation, student, higher education, pedagogical model.

Аннотация: В статье анализируются методологические основы применения научно-просветительского наследия имама Абу Хамида аль-Газали в духовно-нравственном воспитании студентов высших учебных заведений. Идеи мыслителя о единстве знания и действия, воспитании души, самоотчёте (мухасаба), умеренности (и'тидаль) и этике наставника, изложенные в трудах "Ихйа' 'улум ад-дин", "Мизан аль-'амаль" и "Аййуха-ль-валад", трансформированы в современные педагогические принципы. В исследовании интегрированы историко-герменевтический, аксиологический, системно-структурный и компетентностный подходы. В результате разработаны усовершенствованная методологическая модель, включающая целевой, содержательный, технологический и оценочный компоненты, четырёхкритериальная диагностическая система духовно-нравственной воспитанности студентов и научно-методические рекомендации для практики высшего образования.

Ключевые слова: аль-Газали, научно-просветительское наследие, духовно-нравственное воспитание, методологическая основа, воспитание души, самоотчёт, умеренность, студент, высшее образование, педагогическая модель.

KIRISH

XXI asrda globallashuv, raqamli muhitning jadal kengayishi va ommaviy madaniyat ta'sirining kuchayishi yoshlar ongida qadriyatlar ierarxiyasining beqarorlashuviga olib kelmoqda. Axborot oqimining keskin ortishi talabalarda tanqidiy fikrlash bilan birga axloqiy tanlov qilish, o'z xatti-harakatiga mas'uliyat bilan yondashish ko'nikmalarini shakllantirishni oliy ta'limning ustuvor vazifasiga aylantirdi. Kasbiy kompetentlik yuksak bo'lgan, biroq ma'naviy-axloqiy asosi zaif mutaxassis jamiyat uchun xavf manbaiga aylanishi mumkinligi zamonaviy pedagogika fanida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida mazkur masala davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. O'zbekiston Respublikasining 23.09.2020-yildagi 637-son[1] "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ta'lim-tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xarakteri va milliy-umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi tamoyil sifatida belgilangan [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-son[2] "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da yoshlarni ma'naviy jihatdan yetuk shaxs etib tarbiyalash muhim yo'nalish sifatida qayd etilgan [2].

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son[3] qarori bilan tasdiqlangan Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi esa ma'naviy tarbiyani ta'limning barcha bosqichlarida tizimli tashkil etish vazifasini qo'ygan [3]. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda buyuk ajdodlarimiz merosiga tayanish hal qiluvchi ahamiyatga ega [4].

Abu Homid Muhammad ibn Muhammad G'azzoliy (1058–1111) islom sivilizatsiyasi tarixida "Hujjat ul-islom" unvoniga sazovor bo'lgan, Bag'doddagi Nizomiya madrasasida mudarrislik qilgan qomusiy olimdir. Uning merosida axloq, ta'lim va tarbiya masalalari markaziy o'rin egallaydi: "Ihyou ulum ad-din" asarining "Ilm kitobi" va "Riyozat an-nafs" bo'limlari, "Mizon al-amal" va "Ayyuhal-valad" risolalari o'z davrining yaxlit pedagogik konsepsiyasini tashkil etadi [6; 7; 8].

Mutafakkir axloqni tug'ma va o'zgarmas sifat emas, balki tarbiya, mashq va odat orqali shakllanadigan holat deb hisoblagan. Bu qarash zamonaviy rivojlantiruvchi pedagogika g'oyalari bilan mazmunan hamohangdir. Shu bilan birga, G'azzoliy merosi O'zbekistonda ko'proq tarixiy-falsafiy va manbashunoslik nuqtayi nazaridan o'rganilgan. Uning pedagogik g'oyalarini oliy ta'lim tarbiyaviy jarayoniga tizimli tatbiq etishning metodologik asoslari, ya'ni tamoyillar, model, mezonlar va texnologiyalar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mavjud tarbiyaviy tadbirlarda meros ko'pincha ma'rifiy-axborot shaklida, ya'ni iqtiboslar va tarixiy ma'lumotlar tarzida taqdim etiladi, talabaning shaxsiy axloqiy tajribasiga aylanmaydi. Ushbu ziddiyat tadqiqot muammosini belgilaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzuga oid manbalarni to'rt guruhga ajratish mumkin: birlamchi manbalar, xorijiy sharqshunoslik tadqiqotlari, G'azzoliy pedagogikasiga bag'ishlangan maxsus ishlar hamda zamonaviy axloqiy tarbiya nazariyalari.

Birlamchi manbalar

G'azzoliyning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari eng to'liq "Ihyou ulum ad-din" asarida bayon etilgan [6]. Asarning "Ilm kitobi" qismida ilmning fazilati, muallim va ta'lim oluvchining odoblari, ilmlarni foydali va zararli turlarga ajratish masalalari yoritilgan.

"Riyozat an-nafs" bo'limida esa xulqni o'zgartirish mumkinligi va uning usullari asoslab berilgan; ushbu bo'lim T. J. Vinter tomonidan ingliz tiliga ilmiy izohlar bilan tarjima qilingan [11].

"Mizon al-amal" asarida axloqning nazariy asoslari, xususan, to'rt asosiy fazilat (hikmat, shujoat, iffat, adolat) va o'rta yo'l g'oyasi tizimli tahlil qilingan [7].

"Ayyuhal-valad" risolasi shogirdga yozilgan nasihatnoma bo'lib, unda amalsiz ilmning befoydaligi, vaqtni qadrlash va o'z-o'zini nazorat qilish g'oyalari ilgari surilgan [8].

"Al-Munqiz min ad-dalol" esa olimning ma'naviy izlanishlari tarixini aks ettiradi va shaxsiy refleksiya namunasini beradi [9].

Rus tilidagi akademik tarjimalar orasida V. V. Naumkin tomonidan amalga oshirilgan "Ihyo" tanlangan boblari tarjimasi va tadqiqoti alohida ahamiyatga ega [10].

Xorijiy sharqshunoslik tadqiqotlari

U. M. Uott G'azzoliyni o'z davrining intellektual inqirozlariga javob izlagan mutafakkir sifatida talqin qilgan [12].

F. Griffel olimning falsafiy ilohiyotini tahlil qilib, uning qarashlarini faqat tasavvufiy emas, balki ratsional asosga ega tizim sifatida ko'rsatgan [13].

1 https://lex.uz/docs/-5013007
2 https://lex.uz/docs/-5841063
3 https://www.lex.uz/docs/-4676839

K. Garden "Ihyo" asarini diniy ilmlarni ijtimoiy-axloqiy jihatdan isloh qilish loyihasi sifatida baholagan [14].

Bu tadqiqotlar G'azzoliy merosini tarixiy kontekstda to'g'ri tushunish uchun muhim, biroq ularda pedagogik tatbiq masalasi asosiy maqsad sifatida qo'yilmagan.

G'azzoliy pedagogikasiga oid maxsus ishlar

YUNESKOning "Prospects" jurnalida N. Nofal G'azzoliyni ta'lim tarixidagi yirik nazariyotchilardan biri sifatida tavsiflab, uning ta'lim maqsadlari, mazmuni va bosqichlariga oid qarashlarini umumlashtirgan [15].

H. R. Alaviy "Journal of Moral Education" jurnalidagi maqolasida G'azzoliyning axloqiy tarbiya konsepsiyasini zamonaviy axloqiy tarbiya nazariyalari bilan qiyoslab, odat va mashqqa asoslangan tarbiyaning ahamiyatini ko'rsatgan [16].

Mazkur ishlar G'azzoliy g'oyalarining zamonaviy pedagogika uchun dolzarbligini isbotlaydi, biroq ular asosan umumiy ta'lim va bolalar tarbiyasiga qaratilgan, oliy ta'lim talabalari uchun metodologik model taklif etilmagan.

Adabiyotlar tahlili quyidagi ilmiy bo'shliqni ko'rsatdi: G'azzoliy merosi tarixiy-falsafiy jihatdan chuqur o'rganilgan, axloqiy tarbiya nazariyalari ham yetarlicha rivojlangan, biroq ikkalasini oliy ta'lim sharoitida birlashtiruvchi metodologik asos – tamoyillar tizimi, model va diagnostik mezonlar – ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, G'azzoliyning "ilm – hol – amal" uchligi va Likonaning "bilish – his qilish – harakat qilish" modeli o'rtasidagi mazmuniy yaqinlik pedagogik tadqiqotlarda yetarlicha foydalanilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini bir-birini to'ldiruvchi oltita yondashuv tashkil etadi:

1. **Tarixiy-genetik yondashuv** – G'azzoliy qarashlarini XI–XII asrlar ijtimoiy-madaniy sharoiti bilan bog'liq holda o'rganish, ularning shakllanish manbalarini aniqlash;
2. **Germenevtik yondashuv** – mutafakkir matnlaridagi tushunchalarning asl ma'nosini tiklash va ularni zamonaviy pedagogik terminologiyaga to'g'ri o'girish;
3. **Aksiologik yondashuv** – merosdagi umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni (adolat, halollik, mo'tadillik, mas'uliyat) ajratib olish va ularni tarbiya maqsadiga aylantirish;
4. **Tizimli-strukturaviy yondashuv** – tarbiya jarayonini maqsad, mazmun, texnologiya va natija komponentlaridan iborat yaxlit tizim sifatida loyihalash;
5. **Kompetensiyaviy yondashuv** – tarbiya natijasini talabaning amaliy faoliyatda namoyon bo'ladigan ma'naviy-axloqiy kompetentligi orqali ifodalash;
6. **Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv** – talabaning ichki motivatsiyasi, refleksiyasi va o'zini o'zi tarbiyalashiga tayanish.

Muhim metodologik talab sifatida dunyoviylik tamoyili qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasida davlat ta'lim tizimi dunyoviy xarakterga ega bo'lganligi sababli, G'azzoliy merosi tadqiqotda diniy ta'lim predmeti sifatida emas, balki milliy-madaniy va umuminsoniy axloqiy meros sifatida talqin etildi. Shu bois tarbiya mazmuniga merosning universal axloqiy-pedagogik g'oyalari tanlab olindi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- birlamchi manbalar va ularning tarjimalarini qiyosiy-tarixiy tahlil qilish;
- G'azzoliy asarlaridagi tarbiyaviy konseptlarni kontent-tahlil asosida ajratish va tasniflash;
- tushunchalarni zamonaviy pedagogik tamoyillarga o'girishda analogiya va interpretatsiya;
- pedagogik modellashtirish;
- tarbiyalanganlik mezonlari va ko'rsatkichlarini ishlab chiqishda ekspert baholash metodi.

Tadqiqot uch bosqichda tashkil etildi:

1. **Nazariy-tahliliy bosqich** – manbalar, ilmiy adabiyotlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rganish, tayanch konseptlarni ajratish.
2. **Modellashtirish bosqichi** – konseptlarni pedagogik tamoyillarga transformatsiya qilish, metodologik model va diagnostik mezonlarni loyihalash.
3. **Tajriba-sinov bosqichi** – modelni oliy ta'lim muassasalarida sinovdan o'tkazish va natijalarni matematik-statistik qayta ishlash (Pirson χ^2 mezoni yoki Styudent t-mezoni asosida).

Ushbu maqolada birinchi va ikkinchi bosqich natijalari, ya'ni takomillashtirilgan metodologik asoslarning nazariy-modelli qismi bayon etiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

G‘azzoliy tarbiya konsepsiyasining tayanch konseptlari

Manbalarning kontent-tahlili asosida mutafakkir pedagogik qarashlarining yetti tayanch konsepti ajratildi.

Birinchisi – ilm va amal birligi. “Ayyuhal-valad” risolasida G‘azzoliy amalga aylanmagan ilmni foydasiz deb hisoblaydi va ilmning qadri uning inson xulqidagi samarasi bilan o‘lchanishini ta’kidlaydi [8]. Bu g‘oya zamonaviy pedagogikadagi bilimni faoliyatga aylantirish talabi bilan to‘liq mos keladi.

Ikkinchisi – xulqning o‘zgaruvchanligi va odat orqali tarbiya (riyozat). “Ihyo”da olim, agar xulq o‘zgarmas bo‘lganida, nasihat va tarbiyaning ma’nosi qolmas edi, degan mantiqiy dalilni keltiradi [6; 11]. “Mizon al-amal”da xulq nafsda mustahkam o‘rnashib, harakatlarni uzoq o‘ylab o‘tirmasdan yuzaga chiqaradigan barqaror holat sifatida ta’riflanadi [7]. Demak, axloqiy fazilat ongli mashq va takroriy amaliyot orqali odatga, odat esa barqaror shaxsiy sifatga aylanadi.

Uchinchisi – muhosaba va muroqaba, ya’ni o‘z amallarini muntazam hisob-kitob qilish va o‘z niyatini nazorat qilish. Bu refleksiv o‘z-o‘zini tarbiyalash mexanizmi bo‘lib, “Al-Munqiz min ad-dalol”da olimning o‘zi uning namunasini ko‘rsatgan [9].

To‘rtinchisi – i’tidol (o‘rta yo‘l). G‘azzoliy har bir fazilatni ikki illat orasidagi o‘rta holat sifatida izohlaydi: masalan, shujoat qo‘rqoqlik va telbalarcha jasurlik orasida turadi [7]. Bu g‘oya mo‘tadillik, bag‘rikenglik va muvozanatli fikrlash tarbiyasi uchun nazariy asos bo‘ladi.

Beshinchisi – to‘rt asosiy fazilat (hikmat, shujoat, iffat, adolat) tizimi bo‘lib, u axloqiy qadriyatlar ierarxiyasini belgilaydi [7].

Oltinchisi – muallim odobi va shaxsiy namuna: “Ilm kitobi”da muallimdan shogirdga shafqatli bo‘lish, ta’limni uning qobiliyatiga mos holda bosqichma-bosqich berish va o‘z amali bilan so‘zini tasdiqlash talab qilinadi [6; 15].

Yettinchisi – niyat va ixlos, ya’ni ilm olishning maqsadi shaxsiy manfaat yoki obro‘ emas, balki haqiqatni anglash va jamiyatga foyda keltirish bo‘lishi lozimligi [6].

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi.

Birinchidan, G‘azzoliy merosi axloqning tarbiya orqali o‘zgaruvchanligi, ilm va amal birligi, refleksiv o‘z-o‘zini nazorat va o‘rta yo‘l g‘oyalariga asoslangan yaxlit pedagogik konsepsiyani o‘z ichiga oladi. Bu konsepsiya zamonaviy axloqiy tarbiya nazariyalari, xususan, xarakter tarbiyasi va axloqiy ongning bosqichli rivojlanishi nazariyalari bilan mazmunan hamohangdir.

Ikkinchidan, merosning tarbiyaviy salohiyati uni ma’rifiy-axborot shaklida taqdim etish orqali emas, balki konseptlarni pedagogik tamoyil va texnologiyalarga transformatsiya qilish orqali to‘liq ro‘yobga chiqadi. Tadqiqotda yetti tayanch konseptning shunday transformatsiyasi amalga oshirildi.

Uchinchidan, maqsadli, mazmuniy, texnologik va baholovchi komponentlardan iborat, muhosaba g‘oyasiga asoslangan refleksiv-korreksion bo‘g‘in bilan boyitilgan metodologik model ishlab chiqildi. Model dunyoviylik tamoyiliga to‘liq mos keladi va turli ta’lim yo‘nalishlarida qo‘llanishi mumkin.

To‘rtinchidan, kognitiv, emotsional-qadriyatli, faoliyatli-xulqiy va refleksiv mezonlardan iborat diagnostik tizim tarbiya samaradorligini o‘lchash va tajriba-sinov ishlarini tashkil etish uchun asos bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Oliy ta’lim muassasalarining gumanitar va pedagogik yo‘nalishlarida “Sharq mutafakkirlarining axloqiy-pedagogik merosi va zamonaviy tarbiya” tanlov fanini joriy etish, unda G‘azzoliy merosiga alohida modul ajratish.
2. “Ma’naviyat asoslari”, “Etika” va “Pedagogika” fanlari o‘quv dasturlariga G‘azzoliyning ilm odobi va axloqiy fazilatlar haqidagi g‘oyalarini axloqiy dilemmalar va keys-stadilar shaklida integratsiya qilish.
3. Tyutor va kuratorlar uchun “Mutafakkirlar merosi asosida talabalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash texnologiyalari” malaka oshirish modulini ishlab chiqish.
4. Talabalar uchun refleksiv kundalik va axloqiy portfolio yuritishni raqamli platforma orqali tashkil etish hamda G‘azzoliy asarlaridan tanlangan matnlar asosida elektron xrestomatiya yaratish.

5. Akademik halollik madaniyatini shakllantirishda mutafakkirning ilm olishdagi niyat va ixlos haqidagi g'oyalaridan foydalanish.
6. Ishlab chiqilgan model va diagnostik mezonlarni oliy ta'lim muassasalarida tajriba-sinovdan o'tkazish va natijalarni matematik-statistik tahlil qilish.

Keyingi tadqiqotlar modelning samaradorligini empirik jihatdan isbotlash hamda uni turli ixtisosliklar talabalari uchun moslashtirishga qaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son. https://lex.uz/docs/-5013007
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. 2022-yil 28-yanvar. https://lex.uz/ru/docs/-5841063
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son qarori. 2019-yil 31-dekabr. https://lex.uz/uz/docs/-4676839
4. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
5. Al-G'azzoliy, Abu Homid. Ihyou ulum ad-din. 4 jildlik. – Bayrut: Dor al-Ma'rifa, [s.a.].
6. Al-G'azzoliy, Abu Homid. Mizon al-amal / Tahqiq: S. Dunyo. – Qohira: Dor al-Ma'orif, 1964.
7. Al-Ghazali. Letter to a Disciple (Ayyuha'l-Walad) / Transl. by T. Mayer. – Cambridge: Islamic Texts Society, 2005.
8. Al-Ghazali. Deliverance from Error (al-Munqidh min al-Dalal) / Transl. by R. J. McCarthy. – Louisville: Fons Vitae, 2000.
9. Аль-Газали. Воскрешение наук о вере (Ихйа' 'улум ад-дин): Избранные главы / Пер. с араб., исслед. и коммент. В. В. Наумкина. – М.: Наука, 1980.
10. Al-Ghazali. On Disciplining the Soul and On Breaking the Two Desires / Transl. by T. J. Winter. – Cambridge: Islamic Texts Society, 1995.
11. Watt W. M. Muslim Intellectual: A Study of al-Ghazali. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 1963.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №10(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.